



UDK: 82.0 (81'37)

Mahliyo XABIBULLAYEVA,
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mahliyo.usmanova@gmail.com

NAMDTU professori, f.f.d D.Xoshimova taqrizi asosida

STYLISTIC FUNCTIONS OF COLOR IMAGES IN LITERARY TEXTS: AN ANALYSIS BASED ON A COGNITIVE AND CULTURAL APPROACH

Annotation

This article analyzes the stylistic functions of color images in literary texts using cognitive and cultural approaches. Color expressions are considered not only as aesthetic embellishment but also as an important component forming the core semantic and emotional layer of poetic language. The study identifies the ideational, interpersonal, and textual metafunctions of color images and demonstrates their dependence on the national and cultural context. The multifunctionality of color images in texts is revealed through an analysis using examples from Uzbek and Western literature.

Key words: Color images, stylistic function, literary text, cognitive stylistics, cultural connotation, metaphor, semantics, relevance theory, poetic language.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЦВЕТОИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО-КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье анализируются стилистические функции цветообразов в художественных текстах на основе когнитивного и культурологического подходов. Цветовыражения рассматриваются не только как эстетическое украшение, но и как важный компонент, формирующий основной семантический и эмоциональный пласт поэтического языка. В исследовании выделяются идеациональные, межличностные и текстовые метафункции цветообразов и показывается их зависимость от национально-культурного контекста. Многофункциональность цветообразов в тексте раскрывается посредством анализа на примере узбекской и западной литературы.

Ключевые слова: Цветообразы, стилистическая функция, художественный текст, когнитивная стилистика, культурная коннотация, метафора, семантика, теория релевантности, поэтический язык.

BADIY MATNDA RANGTASVIR VOSITALARINING STILISTIK FUNKSIYALARI: KOGNITIV VA MADANIY YONDASHUV ASOSIDA TAHLIL

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy matnlarda rang tasvir vositalarining stilistik funksiyalari kognitiv va madaniy yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Rang ifodalari faqat estetik bezak emas, balki poetik tilning asosiy semantik va emotsional qatlamini shakllantiruvchi muhim komponent sifatida ko'riladi. Tadqiqotda rang birliklarining ideatsional, interpersonallik va tekstual metafunksiyalari yoritilib, ularning milliy-madaniy kontekstga bog'liqligi ko'rsatib berilgan. O'zbek va g'arb adabiyoti namunalariga tayanilgan tahlillar orqali rang birliklarining matndagi ko'p funksiyali tabiati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Rangtasvir, stilistik funksiya, badiiy matn, kognitiv stilistika, madaniy konnotatsiya, metafora, semantika, relevans nazariyasi, poetik til.

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda rang birliklarining badiiy matndagi o'rni va funksiyasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Rang tasvirlari — bu oddiy bezak vositasi emas, balki ko'p qirrali ma'no va mazmun yuklovchi stilistik birlik bo'lib, ular matn semantikasini boyitadi, obrazni chuqurlashtiradi va o'quvchi tafakkurida keng assotsiativ qatlamlarni hosil qiladi. Ayniqsa, poetik matnda rang vositalari estetik ta'sir kuchini oshiradi, hissiy holatni yaratadi va muallifning ichki dunyosini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy til vositalari ichida rang birliklari o'zining ko'p funksiyalligi bilan ajralib turadi: ular nafaqat tasviriylikni kuchaytiradi, balki muayyan madaniy, tarixiy va kognitiv kontekstda o'ziga xos semantik yuklamalarni ham anglatadi. Masalan, o'zbek adabiy an'alarida og'rang rang poklik va ezgulik timsoli sifatida talqin qilinsa, qora rang odatda fojia, yo'qotish yoki zulmat bilan bog'lanadi. Biroq boshqa madaniyatlarda ayni shu ranglar boshqa, hatto qarama-qarshi semantik

konnotatsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Yevropa adabiyotida og'rang rang ba'zida sovuqlik, befarqlik yoki ruhiy ajralish ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu esa rang birliklarining madaniy va semantik nisbiylik xususiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan rang birliklari inson tafakkuri, til va idrok o'rtasidagi murakkab munosabatlar natijasi sifatida shakllanadi. Ranglar orqali ifodalangan metafora va ramzlar o'quvchi ongida muayyan assotsiativlarni uyg'otadi, ularni madaniy tajriba, ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy dunyoqarash asosida talqin qiladi (Lakoff & Johnson, 1980). Shu jihatdan olganda, rang ifodalari faqat estetik element emas, balki kognitiv birlik sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Rang birliklarining stilistik funksiyalari badiiy matnda turlicha namoyon bo'ladi: ular emotsional fonni belgilaydi, matnning ichki ritmini shakllantiradi, dramatik intensivlikni oshiradi va o'quvchini muayyan fikr yoki hissiyot sari yo'naltiradi. Yozuvchi uchun ranglar matn ichida nozik semantik niyatlarni ifodalash

imkonini beradi, o'quvchi esa bu rang birliklarini o'z madaniy tajribasi asosida anglaydi. Shu sababli, rang ifodalarini tahlil qilishda nafaqat lingvistik vosita sifatida, balki kognitiv-madaniy fenomen sifatida qarash zarur.

Ushbu maqolada badiiy matndagi rang birliklarining stilistik funksiyalari kognitiv va madaniy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ranglar vositasida yaratilgan estetik, semantik va g'oyaviy qatlamlarga, shuningdek, ularning madaniyatlararo talqiniga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy matndagi rang tasvir vositalari muallif estetikasi, obraz yaratish texnikasi, semantik qatlam va madaniy konnotatsiyalarni uzatish vositasi sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Ushbu vositalarning stilistik funksiyalari vaqt o'tishi bilan murakkablashib, faqat tasviriylik darajasida emas, balki chuqur ma'no, g'oya va hissiy holatni anglatish funksiyalarini ham o'z zimmasiga ola boshladi. Tadqiqotda rang birliklarining badiiy matndagi ahamiyatini kognitiv va madaniy yondashuvlar asosida tahlil qilish maqsad qilingan bo'lib, tanlangan adabiyotlar aynan ushbu yondashuvlarni ilmiy asosda o'rganishga xizmat qiluvchi muhim manbalar hisoblanadi.

Dastlab, stilistik funksiyalar tushunchasi XX asr boshlaridagi rus formalistlari va Praga maktabi vakillari tomonidan asoslab berilgan. Ular "begonalashtirish" (ostranenie) nazariyasini ilgari surib, badiiy matndagi tasvir vositalari, jumladan rang birliklari, o'quvchining idrokini yangilash va hayrat uyg'otish orqali estetik ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi, deb ta'kidlaydilar (Galperin, 1981). Ranglar bu jarayonda oddiy hodisani noodatiy va emotsional tarzda talqin qilish imkonini beradi. Masalan, "osmon ko'k" kabi oddiy tasvir o'rniga "osmon moviy libos kiyib olgan" shaklidagi metafora o'quvchi tafakkurida jonli, obrazli va hissiy kuchga ega tasvir uyg'otadi. Bu esa rang vositalarining matndagi stilistik rolini ochib beruvchi asosiy dalildir.

Stilistik tahlilda rang birliklari faqat tasviriylik vositasi sifatida emas, balki estetik va semantik yuklamaga ega komponent sifatida baholanadi. Havthorn nazariyasiga ko'ra, stilistika matnning estetik qimmatini emas, balki lingvistik elementlarning funksional munosabatini tahlil qiladi. Demak, rang birliklari matnning g'oyaviy yo'nalishini belgilovchi, muallif uslubini aniqlovchi, obrazlar tizimini mustahkamlovchi, emotsional fon yaratishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Ayniqsa, muallif ranglar orqali o'quvchining sezgi, idrok va madaniy tajribasiga murojaat qiladi.

Kognitiv lingvistika bu masalani chuqurlashtiradi. Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan metafora nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri metaforik struktura asosida qurilgan va til — bu tajribaning verbal ko'rinishidir (Lakoff & Johnson, 1980). Ranglar esa bu metaforik tafakkurning faol komponentidir. "Qora" rang yo'qotish, fojea, xavf, noma'lumlik kabi tushunchalarni bildirishi mumkin; "oq" esa poklik, samimiyat, yangilanish kabi konseptlar bilan bog'liq. Shu orqali rang birliklari shunchaki vizual vosita emas, balki ong'dagi konseptual modellarni harakatga keltiruvchi semantik belgilar sifatida ishlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar bu nazariy qarashlarni amaliy tahlillar bilan boyitmoqda. G. Eltuzerova (2021) badiiy matnda ranglarning neverbal belgilar sifatidagi rolini tahlil qilib, ularni psixolingvistik, sotsiolingvistik va etnolingvistik funksiyalar orqali baholaydi. U ranglarni o'quvchi idroki, jamiyat madaniyati va matn strukturasida o'rtasidagi ko'prik deb hisoblaydi (Eltuzerova, 2021). Xuddi shunday, A. Bezrukov (2024) Boris Poplavskiyning poetikasida ranglarning emotsional, nominativ, vizual, aksiologik va qabul qiluvchan (receptive) funksiyalarini tahlil qiladi. U rang birliklarini poetik diskursda semantik makon yaratuvchi vosita sifatida ko'radi (Bezrukov, 2024). O. Kulagina (2023) esa Jak Prever

she'rlarida rang metaforalarining stilistik va madaniy konnotatsiyalarini o'rganadi va ranglar bilan audial metaforalar o'rtasidagi sinestezik bog'liqlikka e'tibor qaratadi (Kulagina, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi. sistemali-funksional yondashuv asosida olib borildi. Bu modelga ko'ra, rang birliklari uch asosiy metafunksiyani bajaradi: ideatsional, interpersonallik va tekstual (Halliday, 1978). Ideatsional funksiya — rang vositalari orqali atrof-muhitni tasvirlash, hissiy holatni ifodalash; interpersonallik — muallifning subyektiv munosabatini anglatadi; tekstual funksiya esa rang birliklarining matn ichidagi uyg'unligi va ramziy izchilligini ta'minlaydi. Masalan, qora rangning muayyan badiiy asarda doimiy takrorlanishi butun asarning umumiy semantik ohangini belgilovchi ramziy struktura sifatida ishlaydi.

Shuningdek, rang birliklarining milliy-madaniy kontekstda har xil talqin qilinishi ham tadqiqotda alohida o'rganildi. Masalan, Yakut va yapon she'riyatidagi "qora" rang — biri uchun motam va qiyinchilik, boshqasi uchun donolik va tantanalik belgisi sifatida ishlatilishi mumkin (Rufova & Makarova, 2022). Bu madaniy o'zgaruvchanlik rang birliklarini tahlil qilishda faqat tilshunoslik emas, balki madaniyatshunoslik va semiotik yondashuvlarni ham talab qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, adabiyotlarda rang birliklari ko'p qatlamli ma'no, assotsiatsiya, emotsiya va ideologik yuklamalarni o'z ichiga olgan. Ularning stilistik funksiyalarini aniqlash esa nafaqat matn tahliliga, balki muallif tafakkuri va madaniy kontekstni tushunishga xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. So'nggi yillarda kognitiv va pragmatik lingvistika sohasida yuz bergan sezilarli rivoj, rang tasvir vositalarining badiiy matndagi stilistik funksiyalarini chuqurroq o'rganish imkonini yaratdi. Kognitiv stilistika yondashuvi badiiy ifoda vositalarini, xususan, metafora va rang obrazlarini faqat badiiy bezak sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy kognitiv vositalaridan biri sifatida talqin etadi. Bu yondashuvga ko'ra, metaforik tasvirlar abstrakt tushunchalarni konkret hayotiy tajribalar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, "yashil orzular" iborasi o'quvchi ongida tabiiylik, yangilanish, hayotiylik va umid kabi semantik-assotsiativ tarmoqlarni faollashtiradi. Bunday metaforalar kognitiv jarayonlarda obrazli fikrlashni kuchaytirib, til orqali ma'naviy konsepsiyalarni anglashda vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Sperber va Uilson tomonidan ishlab chiqilgan Relevans nazariyasi (Relevance Theory) badiiy matndagi rang ifodalarini kommunikativ samaradorlik nuqtai nazaridan baholaydi. Bu nazariyaga ko'ra, matnda ishlatilgan har bir til birligi, xususan, rang metaforalari ham o'quvchida maksimal semantik ta'sirni minimal qayta ishlash orqali uyg'otishi kerak (Sperber & Wilson, 1995). Misol uchun, "olovdek qizil osmon" tasviri o'quvchi ongida bir zumda assotsiatsiya hosil qilib, manzaraning estetik go'zalligini emotsional darajada idrok etishga yordam beradi. Bu yerda rang — ko'rinayotgan shakl emas, balki tushunilayotgan ma'no, hissiyot va kontseptual tafakkur mahsulidir.

Adabiyotshunoslik doirasida esa Greg Jonson va Tomas Arp kabi olimlar rang tasvir vositalarining badiiy matndagi vazifalarini tizimlashtirib, ularni to'rtta asosiy funksiyaga ajratganlar: (1) tasavvufiy zavq bag'ishlash, (2) qo'shimcha tasviriylik yaratish, (3) emotsional intensivlikni oshirish, (4) murakkab g'oyani ixcham shaklda ifodalash (Arp & Johnson, 2017). Har bir funksiya badiiy matndagi rang obrazlarining estetik va semantik ahamiyatini chuqurroq ochib beradi.

Birinci funksiya — tasavvufiy zavq — o'quvchiga badiiy ifodadan estetik lazzat olish imkonini beradi. Masalan, "osmon oltin pardaga o'ralgan" kabi tasvirlar vizual tasavvurni

kuchaytiradi, poetik obrazlar orqali hissiy o'zgarishlarni stimullaydi. Bu kabi rang obrazlari estetik sezgi bilan uyg'unlashib, o'quvchining didi va idrokiga bevosita ta'sir qiladi.

Ikkinchi funksiya – qo'shimcha tasviriylilik – matnga semantik chuqurlik olib kiradi. Ranglar oddiy holatni keng ma'noli, ifodali poetik obrazga aylantiradi. Masalan, "yaproqlar sariq libosga burkandi" kabi tasvirlar kuzgi manzarani jonlantirib, hissiy fonni boyitadi. Bu orqali rang vositalari hayotiy tajriba va tabiat tasvirini yangi badiiy darajaga olib chiqadi.

Uchinchi funksiya – emotsional intensivlikni oshirish – dramatik vaziyatlar, ziddiyatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ayniqsa muhim. "Qora tun" yoki "qizil ko'z yoshlari" kabi iboralar fojeaviy, xavotirli yoki og'ir holatlarni ta'sirchan tasvirlashga xizmat qiladi. Rang vositalari bu jarayonda bevosita kayfiyat va ruhiy holatni anglatadi.

To'rtinchi funksiya – murakkab g'oyani ixcham shaklda ifodalash – rang timsollari orqali ko'p ma'noli mazmun qisqalikda yetkaziladi. "Qora niyat" yoki "oq qalb" kabi iboralar muayyan axloqiy yoki hissiy holatlarning umumlashtirilgan ifodalari. Bu yondashuv poetik nutqda minimal shakl bilan maksimal semantik ta'sir yaratishga imkon beradi.

Rang obrazlarining fonetik uyg'unlik bilan hamohangligi ham estetik zavqni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Edgar Po she'riyatida rang obrazlari bilan fonetik takrorlar, alliteratsiya va assonans uyg'unlashib, musiqiy estetikani kuchaytiradi. "Doubting, dreaming dreams no mortal ever dared to dream before" kabi satrlarda semantik qatlamdan tashqari, ohangdorlik ham o'quvchining idrokini kuchli darajada jalb qiladi. Rang ifodalari bilan ohang uyg'unligi, matnga ko'p sezgi yo'nalishli ta'sir kuchini beradi.

Badiiy matnda rang tasvirlarining yana bir muhim jihati – ramziy funksiyasidir. Har bir rang madaniy kod sifatida o'ziga xos konnotatsiyaga ega. Masalan, Sharq madaniyatida oq rang poklik va samimiyat bilan bog'liq bo'lsa, G'arb adabiyotida ba'zan sovuqlik, befarqlik yoki bo'shliq belgisi sifatida talqin qilinadi (Kulagina, 2023). Shu bois rang ifodalarning semantik yuklamasi kontekstga va madaniy fonda o'zgaradi. Bu esa o'quvchidan lingvomadaniy kompetensiyani, ya'ni madaniyatlararo semantik kodlarni anglash qobiliyatini talab qiladi.

Kognitiv yondashuvda rang obrazlari o'quvchi ongida assotsiativ maydon hosil qilib, idrok jarayonini faollashtiradi. Bunday metaforik tasvirlar matnga "ko'p o'lchovli" ma'no beradi, ya'ni ular sathma-sath semantik qatlamlar bilan boyitilgan. Misol uchun, "qora niyatlar" iborasi shunchaki rang ifodasi emas, balki yovuz niyatlar, buzuk maqsadlar va axloqiy

yuksaklikning yo'qligi bilan bog'liq keng konseptual maydonga ishora qiladi. Shu sababli, rang vositalari badiiy matnda ko'p qatlamli interpretatsiyaga imkon yaratadi, o'quvchining individual tajribasi va madaniy bilimlariga qarab, har xil talqinlar tug'diradi.

Tahlillar davomida aniqlanishicha, rang ifodalari sistemali-funksional lingvistika doirasidagi ideatsional, interpersonallik va tekstual metafunksiyalar asosida turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ideatsional darajada ular voqelikni tasvirlaydi, interpersonallik darajasida munosabat bildiradi, tekstual darajada esa matnning kompozitsion yaxlitligini saqlaydi. Masalan, "qora niyat" iborasi ideatsional funksiyada fojeali vaziyatni belgilaydi, interpersonallikda salbiy bahoni anglatadi, tekstual darajada esa romandagi ziddiyatli voqealarning ramziy motiviga aylanadi. Umuman olganda, rang tasvir vositalari poetik matnning estetik, semantik, psixologik va madaniy qatlamlarini ifodalashda beqiyos stilistik kuchga ega. Ular nafaqat obrazni jonlantiradi, balki o'quvchi tafakkurini shakllantiradi, hissiy holatni uyg'otadi va g'oyaviy tafakkurni faol holatga keltiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, rangtasvir vositalari badiiy matnd O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, badiiy matnda rang tasvir vositalari muallifning estetik konsepsiyasini ifodalashda, obrazlar tizimini boyitishda, emotsional fonni yaratishda va madaniy konnotatsiyalarni yetkazishda muhim stilistik yuklamaga ega. Rang birliklari shunchaki vizual vosita bo'lib qolmay, balki o'quvchi tafakkurini faollashtiruvchi, assotsiativ maydon hosil qiluvchi va ramziy ma'no yuklovchi lingvistik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv stilistika yondashuvi rang obrazlarining inson tafakkuri va tajribasiga bevosita bog'liq ekanligini isbotlab berdi. Metaforik rang tasvirlari o'quvchida ko'p qatlamli idrok jarayonlarini ishga solib, matnning estetik ta'sirini sezilarli darajada oshiradi. Relevans nazariyasiga ko'ra, rang birliklari samarali kommunikatsiya vositasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi, chunki ular minimal til vositasi bilan maksimal semantik yuklamani yetkazadi.

Madaniy va milliy kontekstda ranglarning turlicha talqin qilinishi esa bu vositalarning stilistik funksiyalarini madaniyatlararo tahlil nuqtai nazaridan ham o'rganishni taqozo etadi. Masalan, Sharq va G'arb adabiyotidagi oq va qora ranglarning zid semantik yuklamasi buni yaqqol ko'rsatadi. Metodologik jihatdan olib qaralganda, rang vositalarining ideatsional, interpersonallik va tekstual metafunksiyalar doirasidagi faoliyati matnning semantik strukturasi aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, rang tasvir vositalari poetik tilning eng samarali komponentlaridan biri sifatida badiiy matnning g'oya, tuzilma va estetik qiymatini shakllantirishda yetakchi o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abrams, M.H. (1981). *A Glossary of Literary Terms*. – New York: Holt, Rinehart and Winston. – p. 87.
2. Arp, T. R., Johnson, G. (2017). *Perrine's Literature: Structure, Sound & Sense*. 13th ed. – Boston: Cengage Learning. – p. 296.
3. Eltuzerova, G. (2021). Functions of Colors as Nonverbal Means in a Literary Text. *Theory and Practice in Language Studies*, 7, 369–374.
4. Janjatović, D. (2014). Colour Naming Lexemes in Tennyson's Poem "The Lady of Shalott" and Their Serbian Translation Equivalents. *Philologia Mediana*, 6, 145–154.
5. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press. – p. 256.
6. Poe, E. A. (1845). The Raven. – In *The Raven and Other Poems*.
7. Rufova, E., & Makarova, S. (2022). Symbolic of black in the Yakut and Japanese poetry (through the example of poems by Ivan Gogolev and Takamura Kotaro). *SHS Web of Conferences*, 134, 00056. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202213400056>
8. Shakespeare, W. (2021). As You Like It. In M. Hattaway (Ed.), – Cambridge: Cambridge University Press. – Act II, Scene VII (lines 146–147).
9. Sperber, D., Wilson, D. (1995). *Relevance: Communication and Cognition* (2nd ed.). – Oxford: Blackwell. – p. 312.
10. Безруков, А.Н. (2024). Семантика колоративного эксперимента в художественном дискурсе Бориса Поплавского. *Культура и искусство*, №10, 83–91.
11. Гальперин И.Р. (1981). *Стилистика английского языка*. – Москва: Высшая школа. – 335 с.
12. Кулагина, О.А. (2023). Цветовая метафора в творчестве Жака Превера. *Вестник Московского педагогического государственного университета. Серия: Филологические науки*, Т. 82, №1, 67–78.